QASHQADARYO VILOYATI
KITOB TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

180700 Kitob tumani Katta yo'l ko'chasi 32-uy tel: 75-54-25-307

2023 - yil 26 - iyun 161-4-62-Q/23 Kitob tuman hokimligi

Kitob tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish maqsadida umumta’lim muassasalari mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida

Kitob tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish uchun umumta’lim muassasalariga mikrohududlarini belgilash maqsadida tuman Maktab va maktabgacha ta'lim bo'limi mudirining bildirish xatini inobatga olib, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi Nizomning 39-bandi,shuningdek O’zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 27-moddasiga asosan hamda O’zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish bo‘yicha umumta’lim muassasalariga biriktirilgan mikrohududlar ro‘yxati ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. Tuman hokimi o'rinbosari (O. Sharopov), tuman Maktab va maktabgacha ta'lim bo'limi mudiri (A.Avlayev)ga umumta’lim muassasalari rahbarlari bilan birgalikda maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish, o‘quvchilarni darslarga qatnashishini ta'minlash, monitoring olib borish va uning natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rish vazifasi topshirilsin.

3. Tumandagi umumta’lim muassasalari rahbarlari o‘zlari rahbarlik qilayotgan muassasaga biriktirilgan hududdagi maktab yoshidagi bolalarni o‘z vaqtida

umumta’lim muassasasiga o‘qishga jalb qilish uchun mas’ul hisoblansin.

4. Mazkur qaror qabul qilinishi munosobati bilan tuman hokimining 2022-yil 23-iyundagi 287-4-62-Q/22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan, deb hisoblansin.

5. Ushbu qaror tuman gazetasida e’lon qilinsin va hokimlik rasmiy veb-saytida joylashtirilsin.

6. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari O.Sharopov zimmasiga yuklatilsin.

Kitob tuman hokimi **Pardayev U.B**

Kitob tuman hokimining
2023-yil 26-iyundagi
161-4-62-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Kitob tuman xalq ta’limi bo‘limi tasarrufidagi umumiy o‘rta ta’lim maktablari va maktablarga tegishli mikrohudud bo‘yicha manzillarining RO’YXATI

T\r	Maktab raqami	Maktab joylashgan MFY nomi	Maktab mikrohududiga qarashli qishloq yoki ko‘cha nomi
1	1-maktab	Mustaqillik MFY	1. X. Olimjon MFY: X. Olimjon, Amir Temur, Zilolbuloq, Olmazor, Beruniy ko‘cha. 2. Charmgar MFY: Katta yo‘l, Charmgar, Nomozgoh ko‘cha. 3. Mustaqillik MFY: Mustaqillik, G’.G’ulom, Archazor, Oq suv, Gulzor, Istiqlol ko‘cha. 4. Bo‘ston MFY: Yoshlik, A. Qodiriy, Shodlik, Ibn Sino ko‘cha.
2	2-maktab	Bo‘ston MFY	1. Yangiobod MFY: Yangiobod, A. Karalyova ko‘chasi 2. Bo‘ston MFY: Yoshlik, A. Qodiriy, Ibn Sino ko‘cha.
3	3-maktab	Ali Qushchi MFY	1.Ali Qushchi MFY: Ali Qushchi, Katta yo‘l, Furqat, Yuqori darvoza, Muqumiy, A. Jomiy, 2. Toshkent MFY: Toshkent, Zargarlik, Baland ko‘prik, Ulug‘bek ko‘cha. 3. X. Do‘stligi MFY: X. Do‘stligi, Navro‘z, Rezvontepa, Chim, Cho‘lpon ko‘cha.
4	4-maktab	Guliston MFY	1. Guliston MFY: B. I. Yo‘li, Oybek, A. Qahhor, Guliston ko‘cha 2. Charmgar MFY: Navoiy, Namozgoh, Qo‘shariq, Bog‘ibaland, Kiftiob, Sayilgoh, ko‘cha. 3. Toshkent MFY: O’zbekiston, Samarqand, Chuqurchashma, Qal’atagi, Zaogarlik ko‘cha. 4. X. Do‘stligi MFY: Mevazor, Qashqadaryo, A. Shoir, Kulollik ko‘cha.
5	5-maktab	Mustaqillik MFY	1. Mustaqillik MFY: Oq suv, Sohil bo‘yi, Gulzor, G’. G’ulom, Chamanzor, O’yingoh, Archazor, Istiqlol, Mustaqillik ko‘cha 2. Sanam MFY: Shahrisabz, Shukrona, Shodiyona, Uzumzor ko‘cha.
6	6-maktab	Beshqazoq MFY	Beshqazoq qishloq
7	7-maktab	Paxtaobod MFY	Qumqishloq, Jarqurg‘on qishloq
8	8-maktab	Beshqazoq MFY	Yangi ariq qishloq
9	9-maktab	Birlik MFY	Qalmaq, Birlik, Minglar qishloq
10	10-maktab	Paxtaobod MFY	Navqot qishloq
11	11-maktab	Bog‘bon MFY	Ochamayli, Qaychili qishloq
12	12-maktab	Xoji MFY	Xoji, Uzinqir qishloq
13	13-maktab	Bog‘bon MFY	Yangi qishloq
14	14-maktab	Sohibqron MFY	Yuqori qaychili qishloq

15	15-maktab	Beshterak MFY	Mash’al, Oqshiq qishloq
16	16-maktab	Beshterak MFY	Beshterak qishloq
17	17-maktab	Parchakent MFY	Parchakent, Saroy qishloq
18	18-maktab	Yakkatut MFY	Yakkatut, Ko‘mirtepa qishloq
19	19-maktab	Yakkatut MFY	Saparcha qishloq
20	20-maktab	Alaquyliq MFY	Alaquyliq, Gulbog‘ qishloq
21	21-maktab	Bektemir MFY	Bektemir qishloq
22	22-maktab	Shurobsoy MFY	Guliston qishloq
23	23-maktab	Shurobsoy MFY	Chechak, Boshchil qishloq
24	24-maktab	Yangizamon MFY	Do‘rmon, Xo‘ja qishloq
25	25-maktab	Sharq yulduzi MFY	Rus qishloq, Temirchi qishloq
26	26-maktab	Bahor MFY	Halovot qishloq
27	27-maktab	Yo‘ldosh shaharcha MFY	Gulshan qishloq
28	28-maktab	Qaynar MFY	Qaynar, Qurilish, Qongli qishloq
29	29-maktab	Denov MFY	Gulgunpo‘sh qishloq
30	30-maktab	Denov MFY	Denov qishloq
31	31-maktab	Surum MFY	Surum qishloq
32	32-maktab	Ulug‘bek MFY	Qizildarvaza ko‘cha
33	33-maktab	Ulug‘bek MFY	Mirzo Tursunzoda, Paxtakor, Navro‘z ko‘cha
34	34-maktab	Xalqlar do‘stligi MFY	X. Do‘stligi, Chim ko‘cha
35	35-maktab	Obod MFY	Ko‘sam, Ochamayli qishloq
36	36-maktab	Nurafshon MFY	Xayravod qishloq
37	37-maktab	Panji MFY	Panji shaharcha, Nurafshon qishloq
38	38-maktab	Obod MFY	Chig‘atoy, Qushboshi qishloq
39	39-maktab	Panji MFY	Quyioqboy qishloq
40	40-maktab	Oqsuv MFY	Xo‘jaisparoz qishloq
41	41-maktab	Qorabuloq MFY	Qorabuloq qishloq
42	42-maktab	Qaynar MFY	Sovuqbuloq, Jayrali qishloq
43	43-maktab	Palandara MFY	Mug‘ul qishloq
44	44-maktab	Xo‘jailmkoni MFY	Xo‘jailimkoni, Gulbog‘ qishloq
45	45-maktab	Sevaz MFY	Sevaz qishloq
46	46-maktab	Oqsuv MFY	Nurali, Nimgi, Qoramirgan qishloq
47	47-maktab	Saroy MFY	Saroy, Yangiobod qishloq
48	48-maktab	Saroy MFY	Chorva, Oppon-soppon qishloq
49	49-maktab	Tupchoq MFY	Jayraxona, Tupchoq, Chalma qishloq

50	50-maktab	Tupchoq MFY	Ravot qishloq
51	51-maktab	Iskano MFY	Iskana, Tupchoqcha, Takiya qishloq
52	52-maktab	Varganza MFY	Varganza sh, Bog‘ishamol qishloq
53	53-maktab	Bog‘ibaland MFY	Xirmonjoy, Toshloq qishloq
54	54-maktab	Bog‘ibaland MFY	Bog‘i-baland, Qatorbog‘ qishloq
55	55-maktab	Anorzor MFY	Shatri qishloq
56	56-maktab	Bashir MFY	Bodomzor, Kosagar qishloq
57	57-maktab	Bashir MFY	Koyni, Ali Qushchi qishloq
58	58-maktab	Bashir MFY	Bashir qishloq
59	59-maktab	Varganza MFY	Qo‘shchinor qishloq
60	60-maktab	Kuxsor MFY	Denovbola, Shut, Aspiduxtar qishloq
61	61-maktab	Palandara MFY	Oftobro‘ya, Yangi qishloq qishloq
62	62-maktab	Palandara MFY	Vatkana, Archazor qishloq
63	63-maktab	Obikanda MFY	Obikanda, Ishqop, To‘da qishloq
64	64-maktab	Obikanda MFY	Qurilish, Tutiorif qishloq
65	65-maktab	Tevaboshi MFY	Tuyaboshi, Xunarmand qishloq
66	66-maktab	Tevaboshi MFY	Sumak, Oshqon qishloq
67	67-maktab	Ko‘hsor MFY	Javuz qishloq
68	68-maktab	Kuxsor MFY	Matmon qishloq
69	69-maktab	Yo‘ldosh shaharcha MFY	Qavzaxona qishloq
70	70-maktab	Jilisuv MFY	B. Qaychili, Jilisuv, Chimboy qishloq
71	71-maktab	Jilisuv MFY	Eskijilisuv qishloq
72	72-maktab	Navbahor MFY	Saroy qishloq
73	73-maktab	Navbahor MFY	Mallaboshi qishloq
74	74-maktab	Zarafshon MFY	Yangiobod shaharchasi
75	75-maktab	Makrid MFY	Qurama, Yuqorichil qishloq
76	76-maktab	Makrid MFY	Xonaqo, Xachiruchdi, Xasantepa qishloq
77	77-maktab	Navro‘z MFY	Navro‘z, O’rtachil qishloq
78	78-maktab	Qashqadaryo MFY	Minjir qishloq
79	79-maktab	Qashqadaryo MFY	Ayoqchi, Chorvador, Tojik qishloq
80	80-maktab	Ayoqchi MFY	Yuqori Ayoqchi qishloq
81	81-maktab	Sariosiyo MFY	Sariosiyo qishloq
82	82-maktab	Qo‘shdaryo MFY	Doniyorshayx, Yuqorioqboy va Sherobod qishloq

83	83-maktab	Navro‘z MFY	O’rtachil, Eski O’rtachil qishloq
84	84-maktab	Xamid Olimjon MFY	Beruniy, Olmazor, X. Olimjon ko‘cha
85	85-maktab	Surum MFY	Musobozor, Yangi qishloq
86	86-maktab	Qaynarbuloq MFY	Javzobod qishloq
87	87-maktab	Istiqbol MFY	Qashqadaryo, Ittifoq, Koinot qishloq
88	88-maktab	Kuhsor MFY	Pastkijovuz qishloq.
89	89-maktab	Zarafshon MFY	Fayzobod qishloq
90	90-maktab	Palandara MFY	Deyishqon qishloq
91	91-maktab	Panji MFY	Panji shaharcha, Nurafshon qishloq
92	92-maktab	Navro‘z MFY	Navro‘z, Yangiqurama, Chirkay qishloq
93	93-maktab	Katlos MFY	Katlos qishlog‘i
94	94-maktab	Varganza MFY	Varganza, Chinor
95	95-maktab	Sharq Yulduzi MFY	Rus qishloq, Temirchi

Kitob tuman hokimining
2023-yil 26-iyundagi
161-4-62-Q/23-son qaroriga
2-ilova

XUQUQIY XULOSA.

Tuman hokimining "Kitob tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o'rta ta'limga to'liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta'lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to'g'risida» gi qaror loyixasi O'zbekiston Respublikasining " Ta'lim to'g'risidagi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 15- martdagi 140-sonli Qarori bilan tasdiqlangan " Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida" Nizom talablari bo'yicha o'rganib chiqilib, tumanda maktab yoshidagi bolalarni umumiy o'rta ta'limga qamrab olish jarayonida umumta'lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)ni aniq belgilab olish maqsadida ishlab chiqilgan.

Kitob tuman hokimining ushbu qaror loyihasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunchilikka va qonunchilik texnikasi qoidalariga to'liq javob beradi.

Kitob tuman hokimining " Kitob tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o'rta ta'limga to'liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta'lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to'g'risida» gi qaror loyihasi 2023-yil 31-may kuni interaktiv portalga muxokoma uchun kiritilgan edi (ID 81024). 2023–yil 16-iyun kuni interaktiv portalda muxokoma muddati tugaganligi sababli tuman Adliya bo'limiga xuquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun yuborilmoqda.

Kitob tuman hokimligi bosh yuriskonsulti,
2- darajali adliya maslahatchisi Sh.Eshniyazov.

Kitob tuman hokimining
2023-yil 26-iyundagi
161-4-62-Q/23-son qaroriga
3-ilova

NORMATIV-HUQUQIY HUJJAT LOYIHASINING
LINGVISTIK EKSPERTIZA
XULOSASI

3 –son

1.Normativ-huquqiy hujjat loyihasining turi: qaror

2.Normativ-huquqiy hujjat loyihasining nomi: Kitob tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish maqsadida umumta’lim muassasalari mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida

3.Lingvistik ekspertizani o‘tkazuvchi: Kitob tumani hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi L. O‘roqova

4. Lingvistik ekspertiza o‘tkazilgan sana: 2023-yil 14-iyun

5.Normativ-huquqiy hujjat loyihasi matnida aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish, tegishli tuzatishlar kiritish, matnni qisqartirish, qayta ishlash bo‘yicha aniq tavsiyalar ko‘rsatiladi.

Hujjat loyihasi ko‘rib chiqildi. Matnda uslubiy, imloviy, tinish belgilariga oid xatolar bor. Qarorning kirish qismida fikrlar izchil emas. Qonun va qaror bo‘yicha sharhlar ortiqcha. 5-bandida aniqlik yetishmaydi. Qarorning asosi tushib qolgan.

Qarordagi kamchiliklar tuzatildi.

BERILGAN TAVSIYALAR

T/r	Loyiha matnida	Tavsiyada
1	O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 9-son, 225-modda)ning 27-moddasi	O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 27-moddasi
2	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi Nizom (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 11-son, 167-modda)ning 39-bandiga asosan	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi Nizomning 39-bandi
3		Tuman Xalq ta’limi bo‘limi mudirining xati inobatga olinsin.
4	5.Ushbu qaror tuman gazetasida e’lon qilinsin.	Qaror tuman “Kitob ovozi” gazetasida e’lon qilinsin va hokimlik rasmiy veb-saytida joylashtirilsin.

Maslahatchi: **L. O‘roqova**

***Ushbu tavsiyalar jadval shaklida bayon qilinib, unda loyiha matnining dastlabki tahriri hamda ekspertiza natijasida tavsiya etilayotgan tahrir aks ettirilishi lozim.**